

ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK TIZIMI
"TUKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARI HAQIDA

“University of economics and
Pedagogy” NOTM Ijtimoiy
gumanitar kafedrası dotsenti,

ABDURAZAQOVA FERUZA

Boshlang'ich talim yo`nalishi
sirtqi ta`lim 3 bosqich talabasi

Gulomova Nodira Xoliqjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik tizimi, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari, asarning tub mohiyatini yoshlarni ma`rifatga chorlash, sharqona, ko`p milliy an`analarimiz ruhidagi tarbiya ishining yol-yoriqlarini talqin etish, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining g`oyaviy-badiiy mazmuni haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** pedagogik tizim, klassik shoir, g`oyaviy-badiiy mazmun, litografik usul.

Kirish:

Avloniy 1878- yil 12-iyulda Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug`ilgan. Eski maktabda tahsil olgan, madrasada tahsil olgan. Oiladagi moddiy qiyinchilik tufayli bolaligidan odamlarning eshigida ishlagan. U mardikordan duradgorgacha, g`isht teruvchigacha suvoqchilikdan tortib tunukachilikgacha ishlagan. Mehnatsevar, o`tkir zehnli yigit mahallaga mohir hunarmand sifatida tanildi.

Hayot qanchalar og`ir kechmasin, yosh Abdulla hamisha ilmga tashna edi. Shu sababli, yillarning ko`p qismi kuz va qishda, bahor va yozda oilaning ro`zg`origa qaragan. O`n besh yoshida uning sherlari matbuotda paydo bo`ldi. Yurtda bo`lish, turli daraja va toifadagi kishilar suhbatidan bahramand bo`lish Abdulla akaga zamondoshlarining hayotga bo`lgan ilg`or tamoyillari, yangiliklari, turli qarashlari

bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Ana shunday sharoitlar tufayli u matbuotga erta qiziqqa boshladi.

Asosiy qism:

XIX asrning ikkinchi yarmi va 20-asr boshlarida Turkiston (O'rta Osiyo)da pedagogik g'oyalar va xalq maorifini rivojlantirishga ilg'or ziyolilarning katta hissasi qo'shildi. Bunda jadid adabiyotining yirik namoyandasi shoir, dramaturg, ustoz Abdulla Avloniy (1878–1934)ning xizmatlari katta. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” “Maktab Gulistoni” asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari 1913-yilda Toshkentdagi Ilin bosmaxonasida litografik (litografik) uslubda nashr etilgan. Kitob 1917-yilda shunday darslikka bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, qayta nashr etilgan. Ikkala nashr ham hajmi bo'yicha farq qilmaydi. Faqat birinchisiga kotib Abdusalom Abdurahmon o'g'li, ikkinchisiga kotib Abdul Mannon ibn Abdul Majid (O'zbek milliy teatrining mashhur aktyori Mannon Uyg'ur Majidov) imzo chekadi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq”ning uchinchi nashrini 1967 yili “O'qituvchi” nashriyoti amalga oshirdi. Bunda asarda uchragan diniy iboralar, Hadisdan olingan hikmatlar davr talabiga ko'ra tushirib qoldirildi. Asarni “O'qituvchi” nashriyoti 1992 yil asli nusxa yozuvida (arab yozuvi asosidagi o'zbek yozuvida) va rus alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'girilgan matni bilan birga, shuningdek, qiyin so'zlar lug'ati ilova qilingan holda bosib chiqardi.

“Turkiy Guliston yoxud axloq”ning qo'limizdagi beshinchi nashri sobiq nashrlar ichida eng mukammalidir. Bunda kotib Mannon Uyg'ur dastxati matnining faksimeli, lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek yozuviga o'girilgan matni, qiyin so'zlar lug'ati berilgan. Bundan tashqari Abdulla Avloniyning “Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim” “Maktab Gulistoni” asarlaridan tanlangan hikoya, she'rlari ham ilova qilindi.

Abdulla Avloniy "Tukiy guliston yoxud axloq" asarini oz davrining maktablari, yoshlari, xususan, yuqori sinf oquvchilari uchun qo'llanma tarzida yaratdi.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma'rifatga chorlash, sharqona, ko'p milliy an'analarimiz ruhidagi tarbiya ishining yol-yoriqlarini talqin etish, ayni vaqtda, ta'lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg'or talabalarini qo'yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqdagi o'rnini yoritish tashkil etadi. Abdulla Avloniy "Tukiy guliston yoxud axloq"da yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, oy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritir ekan, ularning har biridagi oziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qildi. Uning oqish, o'qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur degan fikrni oz zamoni uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir. Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir, deb yozadi.

Xulosa:

Avloniy ishlar deyarli unutilgan. yuqori axloqiy tushunchalar (bilim olish va vatanparvarlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq); Zo'ravonlik, nifoq, ochko'zlik, hasad, befarqlik, Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, "Turkiy guliston yoxud axloq"da bugun tarbiyag'iybat, haqorat, uyat, tuhmat, adovat, ochko'zlik, insofsizlik, jaholat, g'azab, xiyonat va hokazolar talqin qilinadi. Muallif ularning inson hayoti va taqdiridagi o'rni va rolini ixcham, aniq va lo'nda tushuntirib beradi. Bu odob-axloqni chuqurlashtirish, shubhasiz, bugungi kun yoshlari uchun muhim ahamiyatga ega. Asar quruq pand-nasihatlardangina tashkil topgan emas. Undagi qator fikr, g'oyalarda XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlaridagi milliy uyg'onish ruhi aks ettirilgan. Xususan, millat kelajagi haqidagi qayg'urish, vatan istiqboli haqida o'ylash, el va yurtga sodiq, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga birinchi darajali e'tibor berish kerakligi "Tukiy guliston yoxud axloq"ning g'oyaviy-badiiy mazmunida alohida or'in tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston, yoxud axloq." T., 2008.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. T., 2008.
3. A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: Sharq, 2000.

4. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.

5. Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.